

KASB TANLASHDA QOBILIYATNING O'RNI VA KASB-HUNARTGA YO'NALTIRISH ISHLARI

Xamidova Nigora Nabijonovna

*Farg'ona viloyati Toshloq tumani 21-umumiy
o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs rivojlanishi, kasb tanlashi va jamiyatda o'z o'rnini topishida uning qobiliyatlarining ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, idrok, shaxsiy sifalar, kasb tanlash, iqtidor, talent.

Qobiliyatlar qiziqish va mayllar bilan mahkam bog'liq bo'ladi hamda odamning kasbga layoqatini ko'rsatuvchi belgilarning ajralmas qismi hisoblanadi. Xo'sh, qobiliyatning o'zi nima? Odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradigan har qanday individual psixologik xususiyatni qobiliyat deb hisoblash mumkin. Qobiliyatni faqat bilim va malakalardan iborat deb hisoblab bo'lmaydi. Masalan, agar odam hidlarning bir-biridan [farkini yaxshi bilsa va](#) ularni esda saqlab qola olsa, u holda bunday fazilat ximik uchun, degustator uchun, oshpaz va boshqa shunga o'xshash kasbdagi kishilar uchun juda zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi. Basharti, kishining xotirasida juda ko'p raqamlar, harflar, so'zlar yoki tashqi alomatlar yaxshi (mustahkam) saqlanib qoladigan bo'lsa, u kishi mana shu o'z xotirasidagi ma'lumotlarni [kerak paytda ishlata olsa](#), u holda bu ham juda zarur fazilat, matematikka, dasturchiga, konstruktorga va boshqa shunga o'xshash kasbdagi kishilar uchun zarur bo'lgan qobiliyat hisoblanadi.

Har qanday faoliyat muayyan qobiliyatlar jamini ishlatishni taqozo etadi. Masalan, veterinariya feldsheri yoki shifokor kuzatuvchan yoki tashabbuskor kishi bo'lishi, chuqur aql idrokka ega bo'lgan chaqqon-epchil odam bo'lmog'i, o'z ishiga g'oyat halol munosabatda bo'lishi kerak.

O'quvchilarning kasbga qiziqish va qobiliyatlarini o'rganishga [oid hujjatlar](#)

O'quvchilarning kasbga qiziqish va qobiliyatlarini o'rganishga oid maxsus xujjatlarni ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish ishi maktablarda keng yo'lga qo'yilgan. Quyida chiqqan "Kasbiy maslahat varaqasi" va "Kasb tanlash varaqasi" ni namuna tariqasida keltiramiz va shular asosida har bir maktab o'z xujjatlarini ishlab chiqishi mumkin.

Qobiliyatlar [va qiziqishlar diagnostikasi](#)

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. SHuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishla

b chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda. Qobiliyatlarni o'lchash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu erda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash - qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lchashning ishonchli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Rus olimi E.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - xunar [sohalarini asos qilib olib](#), metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so'rovnomasi» deb atadi. SHunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

P(T) - tabiat (usimlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari) ;

CH(O)- odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli ma'lumotlar, belgili simvollar);

X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

Barkamol shaxsni tarbiyalash jamiyatning ezgu maqsadi hisoblanib, u ma'naviyatning uzviy bir qismi va taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omildir. Buning uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida amalga oshirilishiga shubha yo'q. CHunki, uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Kasb-hunar kollejlari uzluksiz ta'limning muhim bo'g'inidir. Qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari boshqa sohalar uchun kichik mutaxassislar tayyorlaydigan kollejlardan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Bu eng avvalo, qishloq xo'jaligining mavsumiyligiga bog'liq bo'lib, [qishloq](#) xo'jalik kollejlari tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarda ularni hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Biz hozirgacha kasb tanlashga yo'llash ishlarini umumiy tarzda ko'rib chiqdik. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilarni qishloq xo'jalik kasblariga yo'naltirish o'ziga xos xususiyatlariga ega. Biz shu bo'limda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining sanoatga nisbatan ajralib turuvchi xususiyatlari haqida ma'lumot berishga harakat qilamiz. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Mashina texnikasi jonli tabiat bilan bevosita aloqada ishtirok etadi.
2. Texnika muammolari, biologiya muammolari jonli tabiat haqidagi fan bilan qo'shilib ketadi.
3. Rang-barang tuproq iqlim omillariga agrotexnikadan foydalanishga differensial yondashishni talab etadi.
4. Agregatlashgan mashinalar (qurollar) kompleksining o'zgarib turishi, ishlarning mavsumiyligi mehnatni ustalik bilan tashkil etishni talab qiladi.

Qishloq maktablarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni qishloq xo'jalik kasblariga qiziqtirish va yo'naltirishdan iboratdir. YAshash sharoiti va zamonaviy texnikalardan foydalangan holda qishloq maktablarining imkoniyatlari juda kattadir. Qishloq maktabi o'quvchilarda qishloq xo'jalik mehnatiga – paxtakor, g'allakor va hokazo kasblarga qiziqish o'yg'otishga da'vat etilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida zikr etilganlar kasbiy tayyorgarlik tizimi hayotiyiligini ta'minlaydi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, psixologik-pedagogik qonunlarni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi.
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. *Science and Education*, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. *Science and Education*, 1(Special Issue 4).
5. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. *Academic research in educational sciences*, (3).
6. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 2)